

MUSTAQILLIK VA DIN

Ergashova Farangiz

Meyliyeva Shaxnoza

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalari

Annotatsiya: Hozirgi davrda jahondagi bir qator davlatlar dinning davlatdan ajratilganini yoki davlatning diniy tashkilotga nisbatan betarafligini Konstitutsiya yoki qonun darajasida belgilab qo'ygan. Yuridik tan olingani yoki olinmaganidan qat'i nazar, barcha davlatlar din va e'tiqod erkinligiga humat bilan qarashlarini e'lon qilganlar.


Kalit so'zlar: Davlat, din, separatsion, ateizm, dunyoviy davlat, diniy davlat.

Davlat va din munosabatlarining ildizlari juda qadim davrlarga borib taqaladi. Ayni paytda ushbu munosabat- turli tarixiy davrlarda har xil mazmun kasb etgan. O'rta asrlarda din jamiyatning barcha sohalarida, shu jumladan, davlat hayotida to'la hukmronlik qilgan davr- lar ham bo'lgan. Ayrim davlatlarda din butunlay inkor etilgan, ya'ni ateizm ustunlik qilgan. XXI asr boshlarida davlat va dinning o'zaro munosabatlari bo'yicha davlatlarni quyidagi guruhlariga bo'lish mumkin: dinga davlat dini maqomi berilgan davlatlar;

- cherkov ta'siri doirasidagi davlatlar,
- dunyoviy yoki diniy munosabatlarda betaraflik yo'lini tutuvchi davlatlar;
- rasmiy dinga ega bo'lmagan davlatlar;
- din davlatdan ajratilgan davlatlar;
- katolik cherkovi bilan kelishuvga ega davlatlar;
- huquqiy e'tirof etilgan diniy guruhlarini muhofaza qiluvchi davlatlar, diniyjamoaviy tizimli davlatlar.

Hozirgi davirda davlat va din munosabatlari. Hozirgi davrda jahondagi bir qator davlatlar dinning davlatdan ajratilganini yoki davlatning diniy tashkilotga nisbatan betarafligini Konstitutsiya yoki qonun darajasida belgilab qo'ygan. Yuridik tan olingani yoki olinmaganidan qat'i nazar, barcha davlatlar din va e'tiqod erkinligiga humat bilan qarashlarini e'lon qilganlar. Hozirgi davrda davlat va din o'rtasidagi munosabatlar bir qator xususiyatlari bilan ajralib turishini ta'kidlash zarur. «Sovuq urush» davri tugaganidan keyin dinga qarshi hujumkorlik hamda diniy faoliyat ustidan nazorat qilish siyosati yengillashdi. Bu, bir tomondan, diniy erkinlikning ta'minlanishiga xizmat qilgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, diniy sektalarning ko'payishi, yangilarining paydo bo'lishiga olib Mazkur jarayon O'zbekiston davlat va din munosabatlari O'zbekistonda o'z mohiyati, mazmuni va huquqiy asoslariga ko'ra din davlatdan ajratilgan hamda vijdon erkinligi,





konfessional bag‘rikenglik tamoyili mustahkamlangan. Mamlakatimiz Konstitutsiyasida diniy tashkilotlar va birlashmalar davlatdan ajratilganligi hamda qonun oldida tengligi qayd etiladi. Shu bilan birga davlat diniy birlashmalarning faoliyatiga aralashmasligi belgilab berilgan. Mazkur masala O‘zbekiston Respublikasining «Vij don erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida»gi Qonuni mazmunini tashkil etadi. Bu esa mamlakatimizda davlatning diniy ishlarga, dinning esa davlat ishlariga (qonun hujjatlarida ko‘rsatilgan holatlar bundan mustasno) aralashmasligini anglatadi. Shu bilan birga Aso siy Qonunimizda davlat o‘z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlari an‘analari hurmat qilinishini ta‘minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi, deb ta‘kidlanadi. O‘zbekiston Respublikasi demokratik prinsiplar ga sodiqligining ifodasi sifatida davlatning din va diniy tashkilotlar bilan o‘zaro munosabatlarida quyidagi prinsiplarga amal qilishini e‘lon qildi:

- dindorlarning diniy tuyg‘ularini humat qilish;
- diniy e‘tiqodlarni fuqarolarning yoki ular uyush diniy qarashlarga amal qiluvchi fuqarolarning ham, ularga amal qilmaydigan fuqarolarning ham huquqlarini teng kafolatlash hamda ularni ta‘qib qilishga yo‘l qo‘ymaslik;
- ma‘naviy tiklanish, umuminsoniy axloqiy qadriyatlarini qaror toptirish ishida turli diniy uyushmalarining imkoniyatlaridan foydalanish uchun ular bilan muloqot qilish yo‘llarini izlash;
- dindan buzg‘unchilik maqsadlarida foydalanishga yo‘l qo‘yib bo‘lmasligini e‘tirof etish.

Respublikamiz hududida davlat va din munosabatlarini tartibga solish, diniy tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish bilan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkama si huzuridagi Din ishlari bo‘yicha qo‘mita shug‘ullanadi. Qo‘mita o‘z faoliyatini 1992-yilda boshlagan. O‘tgan davr mobaynida yangi sharoitlarning yuzaga kelishi, davlatimiz taraqqiyotning yangi bosqichiga o‘tishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 16-apreldagi farmoniga binoan qo‘mita faoliyati isloh qilindi. Jumladan, xodimlar soni ko‘payib, ularning oylik maoshlari oshirildi. Shu bilan birga qo‘mita huzurida din sohasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammolarni o‘rganish bo‘yicha markaz tashkil qilindi Bugun O‘zbekiston diniy bag‘rikenglik va muvofiq borasida nafaqat MDH davlatlari, balki butun dunyoga namuna bo‘lmoqda. Bu haqda Moskva va Butun rus patriarxi Aleksiy II, Xillari Klinton va Madlen Olbrayt, Iordaniya shahzodasi Hasan bin Tallol kabi dunyo miqyosida katta obro‘ va nufuzga ega insonlar yurtimizga ziyoratlari vaqtida ta‘kidlab o‘tdilar. Albatta, xalqimizga xos bu xislat bir zumda paydo bo‘lgan emas, balki uzoq tarixiy asoslariga.



O'zbekiston davlatining dunyoviylik, diniy bag'rikenglik, barcha dinlarga bir xilda munosabat, jamiyat taraqqiyotida din bilan hamkorlik qilish xususiyatlari ushbu tamoyil asosida amalga oshiriladi, Chunki konstitutsiyaviy dunyoviy-ma'rifiy davlatda vijdon erkinligi qonuni diniy e'tiqodi va dunyoqarashidan qat'i nazar, siyosiy xohishlarini bildirishda barcha fuqarolarning teng ishtiroki tamoyiliga rioya qiladi.

1990 yillarning boshlarida xukumatimiz tomonidan berilgan imkoniyatlarning suiste'mol qilinishi, masjid qurish kompaniyaga aylanib ketishi oqibatida ularning soni 89 tadan 5000 tagacha etdi. Ularning aksariyati hujjatlari to'liq rasmiylashtirilmagan, malakali imomlar bilan ta'minlanmagan (95,8% diniy ma'lumotsiz) va zanur sharoitlar bo'lmagan holda faoliyat yurgizib, turli "peshvo"lar masjidlarni o'z uyalariga aylantirishga xarakat qildilar. Ba'zi diniy tashkilotlarning rahbarlari xorijiy fugarolar bo'lib, aslida hech ganday diniy ma'lumotga ega bo'lmay, moliyaviy yordam ko'rsatish hisobiga respublesionerlik faoliya a hududidagi dibilan sh a rahbar gilib o buzg'unchilik, asosiy magsadi turli yo'l va usullar bilan o'z saflarini mahalliy milla vakillari hisobiga kengayurishdan ibora edi.

1. Din va davlat o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solishning tiplari . Rivojlangan demokratik yo'ldan ketayotgan davlatlarning hozirgi zamonda dinga munosabati asosan vijdon erkinligini ta'minlash va diniy bag'rikenglikka asoslangan . SHunga qaramay , bugungi kunda davlat va din o'rtasidagi munosabatlar o'z mazmuni , mohiyati , shakllari va usullariga ko'ra turli davlatlarda o'ziga xoslikka ega . SHu munosabat bilan din va davlat o'rtasidagi munosabatning tiplari , modellari haqida fikr yuritish mumkin . Hozirda davlat bilan din (diniy tashkilotlar) o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solishning turli shakllari mavjud bo'lib , ular bugunga kelib quyidagi uchta asosiy turkumga ajratiladi :

2. Separatsion , ya'ni davlat dindan ajratilganligiga asoslangan model . Davlat bilan din o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solishning bu turiga AQSH , Fransiya , Niderlandiya , Turkiya , MDH davlatlari , jumladan O'zbekiston Respublikasi kabi davlatlarni misol sifatida keltirish mumkin . 3. Kooperatsion neytralitet modeli . Germaniya , Ispaniya , Italiya , Belgiya , Lyuksemburg , Avstriya kabi mamlakatlarida o'z aksini topgan .

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent: "O'zbekiston", 1992.
2. I.A.Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent: "Ma'naviyat", 2008.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari: Diniy tashkilotlar faoliyatini qo'llab – quvvatlash bo'yicha chora – tadbirlar to'g'risida. Toshkent, 2018.
4. B.Yusupov. Diniy bag'rikenglik va milliy qadriyatlar. Toshkent: "O'zbekiston", 2012.





5. SH. Yusupov. Mustaqillik va diniy erkinlik. Toshkent: “Ilm Ziyo”, 2020.
6. O‘zbekiston tarixiy yodgorliklari va ularni saqlashga oid davlat siyosati. Toshkent: “Meros”, 2019.
7. M. Xudoyberdiyev. Din va ma’naviyat. Toshkent: “O‘zbekiston”, 2015.

